G.M. Sverdlov M.M. Agarkovning zarar yetkazuvchi va bolani nazorat qilishga majbur bo'lgan shaxsning birgalikdagi javobgarligi haqidagi nuqtayi nazariga qo'shiladi. Biroq u voyaga yetmagan bolaning ota-onasiga birgalikdagi javobgarlik qoidasini kengaytirmaydi. Uning fikricha, ota-onalarning farzandlarini nazorat qilish majburiyati va uni buzganlik uchun javobgarlik fuqarolik qonunchiligi bilan emas, balki oila huquqi bilan tartibga solinadi. Farzandlar ota-onalarning ularning tarbiyasi bilan bog'liq majburiyatlarini bajarishlariga bog'liq xatti-harakatlari uchun moddiy javobgar bo'lmaydi, xuddi ota-onalar o'z farzandlari oldida ushbu majburiyatlarni to'g'ri bajarmagani uchun moddiy javobgar bo'lmagani kabi [3, 122–126-b.]. Muallifning so'zlariga ko'ra, nazoratni amalga oshirishga majbur bo'lgan va bir vaqtning o'zida shikastlangan bolaning ota-onasi za-

rar yetkazuvchi bilan birgalikda javobgar bo'lishi mumkin emas.

N.S. Maleinning ta'kidlashicha, uchinchi shaxslarning bolalar nazoratsizligi natijasida yetkazilgan zarar uchun cheklangan javobgarligi aybdorlik uchun javobgarlikning umumiy prinsipiga asoslanadi. To'liq javobgarlikni huquqbuzarlarga yuklash aralash javobgarlik qoidasiga ziddir. Bunday hollarda javobgarlik aybga emas, balki sabab-oqibat tamoyiliga ko'ra yuklanadi. Olim bu holatda bolalarni nazorat qilishga majbur bo'lgan shaxslarning aybini hisobga olish va zarar yetkazuvchining javobgarligini kamaytirish zarur, degan xulosaga keladi. N.S. Maleinning fikricha, bu yondashuv voyaga yetmaganlarning manfaatlarini buzmaydi, chunki yosh bola ota-onasiga qaram bo'lib, uni qo'llab-quvvatlash shart. Voyaga yetmagan bola bilan baxtsiz hodisa yuz bergan bo'lsa, moddiy zarar davolanish, bolani parvarish qilish, qo'shimcha oziq-ovqat va boshqa shunga o'xshash xarajatlar uchun qo'shimcha mablag'lar bilan ifodalanadi. Bu xarajatlar, tabiiyki, bolaga emas, balki butunlay ota-onaga tushadi. Shunday qilib, voyaga yetmagan bolaning sog'lig'iga zarar yetkazish natijasida kelib chiqadigan mulkiy zarar uning ota-onasi tomonida bo'ladi. N.S. Malein ma'lum bir davrgacha fuqarolik-huquqiy ma'noda jabrlanganlar bola emas, balki uning ota-onasi bo'ladi, degan xulosaga keladi [1, 126–128-b; 4].

Jumladan, A.Y. Tarasova tahliliga ko'ra ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning ota-onalik majburiyatini suiiste'mol qilishi natijasida bolaning sog'lig'i yoki hayotiga zarar yetishiga sabab fuqarolik qonunchiligida maxsus norma mavjud emasligidir. Uning fikricha, Fuqarolik kodeksida ota-onalarning va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning o'z qaramog'idagilarga yetkazilgan zarar uchun javobgarligi to'g'risidagi maxsus qoidalar mavjud emas [5; 1, 241-b.]. N. Sh. Kurbonaliyev bu fikrga o'z e'tirozini quyidagicha

izohlaydi: "...ota-onalarning bolalar oldidagi majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun javobgarligi fuqarolik qonunchiligi bilan emas, balki oila qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Fuqarolik javobgarligini belgilash ota-onalar va bolalarning huquq va majburiyatlarini belgilaydigan asosni buzadi" [6, 122–126-b.]. Muallifning fikriga qarshi pozitsiyani O.S. Kolmakova quyidagilar bilan tasdiqlaydi: "...ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) va bolalar o'rtasidagi oilaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlariga qaramay, ota-onaning o'z farzandini kaltaklagan qonunga xilof xatti-harakatlari zarar yetkazuvchi xatti-harakatlar sifatida tasniflanishi mumkin, bu esa FKning normalarida belgilangan tartibda qoplanishi mumkin" [7; 1, 241-b.]. Muallifning qayd etishicha, voyaga yetmagan shaxsning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar uchun ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiy yoki homiylarning huquqbuzarlik javobgarligini inkor etish qonunga ziddir va amalda bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlariga e'tibor bermaslikka xizmat qiladi [8; 1, 241-b.].

Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan bolaga zarar yetkazadigan noqonuniy harakatlar sodir etilganda bola yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli. Shuningdek, ota-onalar yoki aliment majburiyatlari bo'yicha voyaga yetmagan jabrlanuvchiga aloqador boshqa shaxslar aliment to'lash bilan birga yetkazilgan zararni qoplashlari shart. Bu ota-ona huquqidan mahrum qilish yoki voyaga yetmagan bolalarning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi jinoyatlar to'g'risidagi jinoiy ishlarni ko'rib chiqishda sudlar tomonidan hisobga olinishi kerak [9, 167-b.]. Muallifning fikriga qo'shilgan holda aytish mumkinki, bugungi kunda oilaviy munosabatlar doirasida bolalarga nisbatan ota-onalar tomonidan turli shakllardagi zo'ravonlik holatlari oshib bormoqda. Masalan, 2023-yilning 12-avgust kuni Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida

uch yoshli o'g'lini o'ldirib, jasadini tashlandiq ariqqa tashlab ketgan otaga Jinoyat kodeksining 97-moddasi (qasddan odam o'ldirish) 2-qismi "v" bandi bilan 16 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Mazkur holat oilaviy kelishmovchilik sabab kelib chiqqan – 2022-yilning fevral oyida ayol o'g'li bilan otasining uyiga ketib qolgan. Oradan 8 oy o'tib ayol farzandi uchun aliment talab qilgan. Aliment to'lashdan talvasaga tushgan erkak farzandi o'ziniki ekaniga gumon qila boshlagan. Shundan so'ng spirtli ichimlik ta'sirida qaynotasining uyiga borgan. Uning yo'qligidan foydalanib, ayoli va o'g'lini o'z uyiga olib kelgan. Uch yoshli o'g'lini qasddan o'ldirib, jasadini tashlandiq ariqqa tashlab ketgan [10].

Ushbu misolda voyaga yetmagan bolaning otasining aliment majburiyatlari bolaga ruhiy va jismoniy azob berish va sog'lig'iga zarar yetkazish natijasida yuzaga keladigan majburiyatlardan ajratilgan. Agar qonuniy vakil bolaga tan jarohati yetkazsa, unga nisbatan zo'ravonlik qilsa yoki uni o'ldirsa, bu nafaqat ota-ona (uning o'rnini bosuvchi shaxs) tomonidan oila huquqi normalarida nazarda tutilgan majburiyatlarning buzilishi, balki hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazish tufayli majburiyatni keltirib chiqaradigan huquqqa zid harakatdir. Voyaga yetmagan bolaning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar uchun ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylarning javobgarligini istisno qilish barcha fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi borasidagi konstitutsiyaviy tamoyilni buzadi. FKning 985-moddasida nazarda tutilgan fuqaroning shaxsiga va mol-mulkiga yetkazilgan zarar qoplanishi kerak. "Agar bolaning sog'lig'i yoki mol-mulkiga otanasining xatti-harakatlari tufayli zarar yetkazilgan bo'lsa, bola bunga chidashi kerak" degan fikrga qo'shib bo'lmaydi, chunki otanani moddiy fuqarolik javobgarligiga tortish oila qonunchiligi tamoyillariga ziddir. Shu bilan birga, agar bunday zarar otanonaning harakatlari bilan emas, balki boshqa voyaga yet-

magan shaxs tomonidan yetkazilgan bo'lsa, FKning 57-bobi qoidalariga muvofiq qoplaniishi kerak.

M.N. Maleina yetkazilgan zarar uchun ota-ona javobgarligining istisno xususiyatini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bolalarga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik fuqarolik kodeksining moddalarida bolaning sog'lig'iga zarar yetkazgan ota-onalarning harakatlari jinoyiy javobgarlikka yoki ota-onalik huquqidan mahrum qilishga sabab bo'lgan hollarda yuzaga kelishi mumkin. Bunday istisno hollarda ota-onalarga farzandlari oldida fuqarolik javobgarligini yuklash oilaviy munosabatlarning umumiy tamoyillariga putur yetkazmaydi [11, 164–170-b.].

Y. Bepalov esa ota-onalik huquqidan mahrum qilish va farzandlikka olishni bekor qilish to'g'risidagi da'vo qanoatlantirilganda, shu jumladan, ota-onalar va farzandlikka oluvchilarning noqonuniy xatti-harakatlari tufayli (ota-onalarning bolalarga shafqatsiz munosabatda bo'lishi, ota-ona huquqlarini suiiste'mol qilish, ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlashi, bolalarning hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyat sodir etishi) ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar tomonidan bolaning sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplashni nazarda tutuvchi norma ni oila qonunchiligiga kiritishni taklif qiladi [12]. Shu bilan birga, sud amaliyotiga murojaat qilib, hozirgi vaqtda ota-onalik huquqidan mahrum qilish va farzandlikka olishni bekor qilish holatlarida yetkazilgan zararni qoplash masalasini muhokama qilmaydi. Agar da'vo qanoatlantirilsa, sud faqat aliment undirish huquqiga ega. Bu holat, muallifning so'zlariga ko'ra, adolatsizdir, chunki bolaning buzilgan huquqlari to'liq tiklanmagan bo'ladi [13].

O.A. Sicheva ham bu borada quyidagi o'rinli xulosaga keladi: "Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosadigan shaxslar tomonidan har qanday zo'ravonlikdan jabrlangan voyaga yetmaganlarni himoya qilish uchun ma'naviy zarar juda muhim sanaladi. Jumladan, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, farzand-

likka olishni bekor qilish (farzandlikka oluvchining aybi bilan), vasiy yoki homiyning vijdonsizligi sababli o'z vazifalarini bajarishdan chetlashtirish, bolani oila tarbiyasiga olishni bekor qilish kabi oilaviy huquqbuzarlikdan mustaqil delikt majburiyat vujudga kelishi mumkin. Shu sababli mazkur vaziyatlarda javobgar bo'lgan shaxslar voyaga yetmagan jabrlanuvchiga boshqa har qanday zarar yetkazilishidan qat'i nazar, ma'naviy zararni qoplashlari shart" [14, 184-b.]. Muallifning fikricha bu qoida FKning ma'naviy zararni qoplash to'g'risidagi yoki OKning ota-onalik huquqidan mahrum qilish oqibatlari, farzandlikka olishning bekor bo'lish oqibatlari bilan bog'liq normalarida o'z ifodasini topishi lozim. Umuman olganda, qonun bolalarni kattalar kabi bir xil himoya qiladi. Zarar yetishi natijasida jabrlangan bolalar ularga nisbatan oqilona g'amxo'rlik qilish majburiyati ostidagi shaxs buni bajarmagani sababli ular tomonidan zarar yetkazilgan bo'lsa, da'vo qilish huquqiga ega [15, 643-b.].

Bunday da'voga yo'l qo'yilishi uchun javobgarning da'vogarga nisbatan g'amxo'rlik qilish majburiyati, bu majburiyatning buzilishi va da'vogarga zarar yetkazilishi kerak [15, 645-b.].

Yuqorida bildirilgan ilmiy xulosa va takliflardan kelib chiqib aytish mumkinki, fikrimizcha, ota-onalarga (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga) voyaga yetmaganga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik belgilashda uchun FKda nafaqat ota-onalik huquqidan mahrum bo'lgan ota-onalarga nisbatan, balki boshqa hollarni ham nazarda tutuvchi qoidalarga amal qilinishi kerak. Masalan, agar bola ota-onasining harakatlari natijasida mehnat qobiliyatini (qisman yoki to'liq) yo'qotsa. Chunki FKning qoidalariga ko'ra zarar yetkazuvchining javobgarligi, birinchidan, bola o'n sakkiz yoshga to'lganda to'xtamaydi, ikkinchidan, jabrlanuvchi mehnat qobiliyatini yo'qotgan taqdirda zararni qoplash bola uchun yagona daromad manbayidir. Shu sababli, ota-onalar va farzandlikka oluvchi-

larning javobgarligini faqat aliment majburiyatlari bilan cheklash, voyaga yetmaganni davolash va parvarish qilish xarajatlarini o'z zimmasiga olish barcha hollarda voyaga yetmaganlarning manfaatlariga mos kelmaydi. Ko'rsatilgan muammoning yechimini aniqlashtirish va qonuniy vakillarning (yordamchi shaxslarning) oilaviy va fuqarolik javobgarligini farqlash uchun fuqarolik kodeksida ushbu shaxslarning delikt javobgarligi to'g'risidagi maxsus qoidalarni kiritish kerak. Bunda voyaga yetmaganlarning huquqlari ota-ona (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) va boshqa shaxslar tomonidan noqonuniy xurujlardan teng ravishda to'liq himoya qilinadi. Bundan tashqari, voyaga yetmaganning ota-onasining (farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylarning) noqonuniy xatti-harakatlari natijasida yetkazilgan ma'naviy zararni qoplash huquqi, ushbu shaxslarning Oila kodeksida nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarishidan qat'i nazar, ta'minlanishi kerak.

Xorijiy davlatlar huquqiy tajribasida bunday norma borligini kuzatish mumkin. Jumladan, Fransiya Fuqarolik kodeksining 1384-moddasi 4-qismiga muvofiq, ota va ona "ota-onalik vakolatiga"ga ega bo'lgan taqdirda ular bilan birga yashaydigan voyaga yetmagan bolalari yetkazgan zarar uchun birgalikda javobgar bo'lsalar, ushbu kodeksning 389-5-moddasi 4-qismiga ko'ra, agar ota-onaning qilmishi bolaga zarar yetkazsa, ota-onalar birgalikda javobgar bo'lishi ko'zda tutilgan.

Voyaga yetmaganlarga yetkazilgan zarar borasida tahlil etilishi lozim bo'lgan yana bir holat shuki, tug'ilmagan bolalarning ham sog'lig'i, hayotiga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik asoslari amaliyotda ko'plab uchramoqda. Bu borada xorijiy davlatlar huquqiy tajribasini o'rganish o'rinli bo'ladi. Chunki milliy qonunchiligimizda tug'ilmagan bolaga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik qoidalari mavjud emas.

Jumladan, Yaponiya fuqarolik qonunchiligida tug'ilmagan bolaga yetkazilgan zarar

uchun javobgarlik ko'rsatib o'tilgan. Fuqarolik kodeksining 721-moddasiga muvofiq, zararni qoplashni talab qilish huquqiga ko'ra, tug'ilmagan bola allaqachon tug'ilgan deb hisoblanadi. Xuddi shunga o'xshash norma Kanada fuqarolik qonunchiligida ham o'z ifodasini topgan. Bunday holat yuzasidan sud amaliyoti materiallarida o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jumladan, Kanadaning Ontario Oliy sudi qarorida shuni kuzatish mumkin. *Holat ketma-ket ikkita avtohalokat natijasida yuzaga keldi. Gaetan Duval boshqaruvidagi hamda yo'lovchi sifatida Moris va uning rafiqasi, 31 haftalik homilador Tereza bo'lgan avtomobil Seguin boshqaruvidagi avtomobil bilan to'qnashib ketdi. Dastlabki to'qnashuvdan so'ng Tereza hali ham mashinada bo'lganida Duval mashinasi ikkinchi marta urilgan. Uch hafta o'tgach, bola – Enn Duval 2 kilogram vaznda muddatidan oldin tug'ildi. Bola 19 oy-ligida mutlaq spastik edi; bu uning g'ayritabiiy yurishi, miya nuqsoni yoki qobiliyatsizligi bilan bog'liq bo'lib, uning gapirishdagi rivojlani-shi ham noodatiy darajada sekin edi. Sud bola tug'ilishdan oldingi jarohati uchun zararni qoplash huquqiga ega ekani to'g'risida qaror qabul qilib, ilgari tiklanish uchun to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan qator masalalarni hal etdi [16, 642-b.].*

Gollandiya huquqiy tizimida ham so'ngi yillarda tug'ilmagan va kelajakdagi bolani, masalan, irsiy nuqson yoki bolaning onasi yoki ota-onasining zararli xatti-harakatlari natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarardan [15, 1095-b.] himoya qilishga qaratilgan yangi huquqiy choralar paydo bo'ldi. Shuningdek, tug'ilmagan bolaga uchinchi shaxs tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik bilan birgalikda ona tomonidan yetkazilgan zarar uchun ham javobgarlik fuqarolik qonunchiligida o'z ifodasini topgan. Masalan, homiladorlik davrida spirtli ichimliklarni haddan tashqari suiiste'mol qilish, chekish va giyohvand moddalarni iste'mol qilish yoki tug'uruqdan oldin parvarishdan bosh tortish tug'ilmagan bolaga zarar yetkazishi mumkin-

ligi haqidagi faraz tug'ilmagan bolaning onasi tomonidan yetkazilgan perinatal zarar deb ko'riladi.

Umuman olganda, tug'ilmagan bolaga zarar yetkazilishi bilan bog'liq holatlar amaliyotda ko'p uchraydi. Shifokor homilani noto'g'ri davolashi, shifokorlar tomonidan tug'ilish jarayonida homilaga zarar yetkazilishi, homilador ayolning sifatsiz mahsulotlarini iste'mol qilishi (o'ziga bog'liq bo'lmagan holatda), homilador ayolga boshqa shaxslarning qasd yoki ehtiyotsizlik natijasida qonunga xilof xatti-harakatlar sodir etishi, homilador ayol bilan yo'l harakati hodisalarining ro'y berishi va boshqalar shular jumlasidan. Fikrimizcha, bunday vaziyatlarda bola tug'ilganidan so'ng uning sog'lig'i bilan bog'liq zarar vujudga kelsa, bolaning tug'ilmasidan avvalgi vujudga kelgan zararga nisbatan da'vo qilish huquqi belgilanishi lozim.

Shu boisdan FKga "Tug'ilmagan bolaning sog'lig'iga shikast yetkazilganda zararning o'rnini qoplash" deb nomlangan 1008<sup>1</sup>-moddani quyidagi mazmunda kiritish lozim bo'ladi: "Tug'ilmagan bola (homila) zararni qoplashni talab qilish huquqiga ko'ra, allaqachon tug'ilgan deb hisoblanadi. Tug'ilmagan bola (homila) davrida mayib bo'lib qolgan yoki sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetkazilgan taqdirda zarar yetkazilgani uchun javobgar shaxs sog'liqqa shikast yetkazilishi tufayli qilingan xarajatlarning o'rnini qoplashi shart. Javobgar shaxs jabrlanuvchiga sog'liqqa shikast yetkazilishi tufayli qilingan xarajatlardan tashqari, shuningdek, tug'ilmagan bolaning mehnat qobiliyati yo'qotilgani yoki kamayganligi bilan bog'liq zararni qonunchilikda belgilangan miqdoridan kelib chiqib, qoplashi shart".

Ta'kidlash joizki, voyaga yetmaganlarning sog'lig'iga yetishi mumkin bo'lgan zararlarning qonunchilikda ko'rsatilmagan turlari ham amaliyotda vujudga kelib ulgurgan. Na faqat jamiyatimizda, balki dunyo miqyosida ham rivojlanib borayotgan sohalardan biri

sport hisoblanadi. Bu borada mamlakati-miz ham jahon arenalarida yetakchilik qilib kelmoqda. Shuningdek, yosh o'smirlar o'rtasidagi milliy va jahon olimpiadalarida ham voyaga yetmaganlar ishtiroki ortib bormoqda. Sportchilarning katta maydonlardagi hayajonli g'alabalariga, shon-shuhratiga guvoh bo'lganimiz kabi ularning ayrim o'rinlarda yutuqlar bilan birgalikda muqarrar jarohatlarini ham ko'ramiz.

Suyaklar sinishi, ta'na a'zolari to'qimalarining shikastlanishi, tananing ko'p qismi falaj bo'lib qolishi, aqliy faoliyatning izdan chiqishi va boshqa shikastlanishlar xavfi raqobatbardosh sport turlarining bir qismidir. Jarohatlar ko'p shakllarda va turli sharoitlarda – jismoniy atrof-muhit omillaridan tortib, boshqa ishtirokchilarning harakatlaridan kelib chiqadigan omillargacha namoyon bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, qachon jarohat o'yinning baxtsiz oqibati bo'ladi va bu qachon huquqbuzarlik uchun javobgarlikka olib kelishi mumkin?

Javob "xavfni o'z zimmasiga olish" deb nomlanuvchi murakkab huquqiy doktrinada yotadi. Xavfni o'z zimmasiga olish sportga oid xalqaro hujjatlarda, ayniqsa, sport va boshqa yuqori xavfli o'yin-kulgi faoliyati kontekstidagi asosiy tushunchadir. Bu sport ishtirokchilari ushbu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan xavflarni tan olishlari va qabul qilishlarini tan oladigan huquqiy prinsipdir. Boshqacha aytganda, sport bilan shug'ullanishni tanlaganingizda, u bilan birga keladigan xavflarni ham zimmangizga olasiz.

Bunday holda shaxslar sport faoliyat bilan bog'liq muayyan xavflarni o'z zimmalariga olishga aniq va yozma rozilik beradilar. U ko'pincha voz kechish, ozod qilish yoki shartnoma orqali rasmiy kelishuvni o'z ichiga oladi, unda ishtirokchi o'zi duch keladigan xavflarni tan oladi va qabul qiladi. Oddiy o'yin davomida jarohatlar olinganda xavfni qabul qilish huquqbuzarlik uchun javobgarlikni cheklaydi. Buzilishlar, sinishlar yoki chayqalishlar kabi umumiy sport jarohatlari

ko'pincha ushbu ta'limot ostida himoyalana-di. Ammo ushbu huquqiy tamoyilning chegaralarini kengaytiradigan holatlar haqida nima deyish mumkin?

Doktrinaning chegaralarida qiziqarli va murakkab bo'lgan uchta toifa mavjud:

- 1) qo'pol beparvolik yoki ehtiyotsizlik;
- 2) me'yordan tashqari xatti-harakatlar;
- 3) noto'g'ri himoya choralari.

Birinchi, qo'pol beparvolik yoki ehtiyotsizlik bilan bog'liq hollarda, agar o'yinchining harakatlari qabul qilingan sport mahorati me'yorlaridan tashqariga chiqsa va qo'pol beparvolik yoki ehtiyotsizlik bilan bog'liq bo'lsa, xavfni o'z zimmasiga olish yetarli darajada himoya bo'lmasligi mumkin. Qasddan va xavfli xatti-harakat, masalan, sababsiz holatlarda shafqatsiz harakat yoki raqibga qasddan zarar yetkazishga urinish yohud ehtiyotsizlik tufayli raqibning ta'na a'zolariga jarohat yetkazish shular jumlasidan.

Ikkinchi, sportda jismoniy aloqa jarohatlarga olib kelishi mumkinligi haqida aniq tushuncha mavjud bo'lsa-da, bu har qanday xatti-harakatlar adolatli o'yin, degani emas. Sportda belgilangan me'yorlardan chetga chiqadigan va shaxsiy chegaralarni buzadigan xatti-harakatlar xavfni o'z zimmasiga olishi mumkin emas. Bunday xatti-harakatlar tajovuz, hujum yoki nomaqbul xatti-harakatlarning boshqa shakllaridan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, 2017–2018-yildagi Milliy xokkey ligasida bir o'yinchi raqibini yuzidan nomaqbul tarzda o'pa boshlaydi. Liga buni to'xtatishini aytsa-da, biroq o'yinchi harakatini davom ettiravergan. Garchi hech qanday ayblov qo'yilmagan bo'lsa-da, bunday xatti-harakat, albatta, fuqarolik-huquqiy javobgarlikka olib kelishi mumkin.

Uchinchi, yetarli darajada himoya choralari yoki xavfsizlik standartlari mavjudligi xavfni qabul qilish samaradorligini shubha ostiga qo'yishi mumkin. Agar ishtirokchilarni oldindan aytib bo'ladigan zararlardan himoya qilish uchun oqilona choralar ko'rilmagan

bo'lsa, xavfsizlikni ta'minlashga mas'ul shaxslar javobgarlikdan himoyalansin lozim. Xavfsizlik choralariga beparvolik bu holatlarda hal qiluvchi omil bo'lishi mumkin. Misol uchun, agar liga xavfsizlik talablari va qoidalariga e'tibor bermasa, natijada jarohatlar bo'lsa, xavfni qabul qilish to'g'ri hisoblanmaydi. Sobiq o'yinchilar tomonidan 2011-yildan beri Milliy xokkey ligasiga o'yinchilarni bosh miya jarohatlari natijasida yuzaga keladigan surunkali xavflardan himoya qilish vazifalari yuzasidan ikki yuzdan ortiq shikoyat qilingan. Demak, ushbu tahlillardan kelib chiqqan holda sport sohasida voyaga yetmaganlarning sog'lig'iga, hayotiga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik masalasini fuqarolik qonunchiligida belgilash zarur hisoblanadi. Fikrimizcha, yuqoridagi holatdan umumiy xulosa chiqarish yanada o'rinli. Boshqacha aytganda, nafaqat voyaga yetmaganlar, balki yoshi katta sportchilarning ham sport o'yinlarida sog'lig'iga, hayotiga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar uchun javobgarlik masalasini fuqarolik qonunchiligiga kiritish maqsadga muvofiq. Chunki har bir sport sohasi o'zining ichki nizomlarida bu borada turlicha normalarni belgilab olgan. Taklif etilayotgan norma esa barcha sport sohalari uchun umumiy qoida sifatida belgilanadi. Fikrimizcha, Xitoy fuqarolik qonunchiligidan foydalanib, amaldagi FKga sport faoliyati orqali yetkazilgan zarar uchun javobgarlik normasini kiritish va yangi 999<sup>1</sup>-modda, "Sport faoliyati natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlik" deb nomlangan norma bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijasida xorijiy davlatlar (Yaponiya va Kanada) huquqiy tajribasi asosida tug'ilmagan bolaga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik tushunchasi milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi lozim, degan xulosaga kelindi. Amaliyotda shifokor homilani noto'g'ri davolashi, ular tomonidan tug'ilish jarayonida homilaga zarar yetkazilishi, homilador ayolning sifatsiz mahsulotlarni iste'mol qilishi (o'ziga bog'liq bo'lmagan holatda),

unga nisbatan boshqa shaxslarning qasd yoki ehtiyotsizlik natijasida qonunga xilof xatti-harakatlar sodir etishi, homilador ayol bilan yo'l harakati hodisalarining ro'y berishi va boshqa holatlarda homilaga zarar yetishi hamda bola turli kasalliklar bilan tug'ilishi mumkin.

### **Xulosalar**

Amalga oshirilgan ilmiy-nazariy tahlillar asosida voyaga yetmaganlarning sog'lig'iga yetishi mumkin bo'lgan zararlarining qonunchilikda ko'rsatilmagan turlari aniqlandi. Jumladan, sport sohasida voyaga yetmaganlarning sog'lig'iga, hayotiga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik masalasi fuqarolik qonunchiligida o'z ifodasini topmagan. Fikrimizcha, nafaqat voyaga yetmaganlar, balki yoshi katta sportchilarning ham sport o'yinlarida sog'lig'iga, hayotiga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar uchun javobgarlik masalasini fuqarolik qonunchiligiga kiritish o'rinli hisoblanadi. Chunki har bir sport sohasi bu borada o'zining ichki nizomlarida turlicha normalarni belgilab olgan. Taklif etilayotgan norma esa barcha sport sohalari uchun umumiy qoida sifatida belgilanadi. Bu borada Xitoy fuqarolik qonunchiligidan foydalanish asnosida amaldagi FKga "Sport faoliyati orqali yetkazilgan zarar uchun javobgarlik" deb nomlangan normani kiritish o'rinlidir.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, FKning 57-bobi quyidagi mazmundagi 999<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiq:

"999<sup>1</sup>-modda. Sport faoliyati natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlik

Agar shaxs o'z ixtiyori bilan o'yin yoki sport faoliyatida muayyan xavf-xatar bilan qatnashsa va shu bilan boshqa ishtirokchining qilmishi tufayli zarar ko'rgan bo'lsa, u boshqa ishtirokchidan, agar uning qilmishi qasddan yoki qo'pol ehtiyotsizligi tufayli yetkazilgan bo'lmasa, boshqa ishtirokchidan huquqbuzarlik uchun javobgarlikni talab qila olmaydi. Bunday faoliyat tashkilotchisining javobgarligi ushbu kodeksning 993-, 994-, 995-, 1008-moddalari qoidalari bilan tartibga solinadi".

Shuningdek, FKning 57-bobi quyidagi mazmundagi 1008<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirilishi zarur deb hisoblaymiz:

"1008<sup>1</sup>-modda. Tug'ilmagan bolaning sog'lig'iga shikast yetkazilganda zararining o'rnini qoplash

Tug'ilmagan bola (homila) zararni qoplashni talab qilish huquqiga ko'ra, allaqachon tug'ilgan deb hisoblanadi. Tug'ilmagan bola (homila) davrida mayib bo'lib qolgan yoki sog'lig'iga boshqacha

tarzda shikast yetkazilgan taqdirda zarar yetkazilganligi uchun javobgar shaxs sog'liqqa shikast yetkazilishi tufayli qilingan xarajatlarning o'rnini qoplashi shart. Javobgar shaxs jabrlanuvchiga sog'liqqa shikast yetkazilishi tufayli qilingan xarajatlardan tashqari, shuningdek, tug'ilmagan bolaning mehnat qobiliyati yo'qotilgani yoki kamaygani bilan bog'liq zararni qonunchilikda belgilangan miqdoridan kelib chiqib, qoplashi shart".

## REFERENCES

1. Malein N.S. *Vozmeshcheniye vreda pri povrezhdenii zdorov'ya nesovershennoletnikh* [Compensation for damage to the health of minors]. State House of Legal Literature Publ., Moscow, 1962
2. Agarkov M.M. *Vina poterpevshego v obyazatel'stvakh iz prichineniya vreda* [The guilt of the victim in obligations arising from causing harm]. *Soviet State and Law*, 1940, vol. 3, p. 79.
3. Sverdlov G.M. *Zashchita interesov detey v sovetskom semeynom i grazhdanskom prave* [Protection of children's interests in Soviet family and civil law]. Moscow, 1955, pp. 122-126.
4. Maleina M.N. *O prave na zhizn'* [About the right to life]. *Soviet State and Law*, 1992, vol. 2, pp. 51-54.
5. Tarasova A.Ye. *Osobennosti uchastiya nesovershennoletnikh v grazhdanskikh pravootnosheniya* [Peculiarities of participation of minors in civil legal relations]. Rostov-on-Don Publ., 2005, p. 202.
6. Kurbonaliyev N.SH. *Problemy zashchity grazhdanskogo informatsionnogo prava rebyonka v Respublike Tadjikistan* [Problems of protection of civil information rights of the child in the Republic of Tajikistan]. Dushanbe, 2014, p. 195.
7. Kolmakova O.S. *Prestupleniya, posyagayushchiye na prava rebyonka v sfere semeynykh otnosheniy* [Crimes that infringe on the rights of the child in the sphere of family relations]. Moscow, 2015, p. 8.
8. Tarasova A.Ye. *Osobennosti uchastiya nesovershennoletnikh v grazhdanskikh pravootnosheniya* [Peculiarities of participation of minors in civil legal relations]. Rostov-on-Don Publ., 2005, p. 154.
9. Sycheva O.A. *Reglamentatsiya i realizatsiya grazhdanskogo i semeynogo prava nesovershennoletnikh v RF* [Regulation and implementation of civil and family law of minors in the Russian Federation]. Moscow, 2011, p. 167.
10. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi materiallari arxivi* [Materials of the archive of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>
11. Maleina M.N. *Lichnyye neimushchestvennyye prava grazhdan: ponyatiye, osushchestvleniye, zashchita* [Personal non-property rights of citizens: concept, implementation, protection]. Moscow, 2000, p. 113.
12. Bepalov Yu. *Vozmeshcheniye vreda, prichinyonnogo zhizni i zdorov'yu rebyonka* [Compensation for damage caused to the life and health of a child]. Available at: <http://lawlibrary.ru/article1165472.html>

13. Bepalov Yu.F. Teoreticheskiye i prakticheskiye problemy realizatsii semeynykh prav rebyonka v Rossiyskoy Federatsii [Theoretical and practical problems of implementing the family rights of the child in the Russian Federation]. Moscow, 2003, p. 269.

14. Sycheva O.A. Imushchestvennyye prava rebyonka v sem'ye [Property rights of a child in a family]. Russian justice Publ., 2000, vol. 2, p. 28.

15. Weiler K.M., Catton K. The Unborn Child in Canadian Law. *Osgoode Hall Law Journal*, 1976, vol. 14(3), pp. 643–659. DOI: 10.60082/2817-5069.2154

16. Lisette T.H. Unborn and Future Children as New Legal Subjects: An Evaluation of Two Subject-Oriented Approaches—The Subject of Rights and the Subject of Interests. *German Law Journal*, 2017, vol. 18, no. 05, p. 1095.

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

---

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal  
Правовой научно-практический журнал  
Legal scientific-practical journal

**2025-yil 2-son**

VOLUME 9 / ISSUE 2 / 2025  
DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.2.